

SOTSIOLINGVISTIKA: IJTIMOIIY OMILLARNING TIL SHAKLLANISHI VA DIALEKTLAR RIVOJIGA TA'SIRI

Xasanova Nozima Abduvahob qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy omillarning til tuzilishi va dialektlar rivojiga ta'siri sotsiolingvistik nazariya asosida tahlil qilinadi. Muallif variativlikni tilning nuqsoni emas, balki uning tizimli xususiyati sifatida ko'rib, ijtimoiy tabaqalanish, yosh, jins, ta'lim, kasb va ijtimoiy tarmoq zichligi kabi omillarning til birliklarini tanlashga ta'sirini yoritadi. Ijtimoiy tarmoq modeli, oshkora va yashirin nufuz tushunchalari, akkomodatsiya nazariyasi va uch to'liqlik variatsion tadqiqot an'anasi alohida muhokama qilinadi. Maqolada urbanizatsiya, ichki migratsiya va dialektlar kontakti sharoitida yuz beradigan koineizatsiya jarayoni, shuningdek o'zbek tili shevalarining hozirgi holati — adabiy til bilan munosabati, shahar nutqining shakllanishi, ikki tillilik va kod almashinuvi hodisalari — tahlil etiladi. Xulosada shevalarni hujjatlashtirish va sotsiolingvistik korpuslar yaratishning zarurati asoslanadi.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, til variativligi, dialekt, ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy tarmoq, nufuz, akkomodatsiya, koineizatsiya, kod almashinuvi, o'zbek shevalari.

Аннотация. В статье влияние социальных факторов на структуру языка и развитие диалектов анализируется на основе социолингвистической теории. Автор рассматривает вариативность не как дефект языка, а как его системное свойство и раскрывает воздействие социальной стратификации, возраста, пола, образования, профессии и плотности социальных сетей на

выбор языковых единиц. Отдельно обсуждаются модель социальных сетей, понятия открытого и скрытого престижа, теория аккомодации и традиция трёх волн вариационных исследований. Анализируется процесс койнеизации в условиях урбанизации, внутренней миграции и диалектного контакта, а также современное состояние узбекских говоров: их отношение к литературному языку, формирование городской речи, двуязычие и переключение кодов. В заключение обосновывается необходимость документирования говоров и создания социолингвистических корпусов.

Ключевые слова: социолингвистика, языковая вариативность, диалект, социальная стратификация, социальная сеть, престиж, аккомодация, койнеизация, переключение кодов, узбекские говоры.

Abstract. The article analyses the influence of social factors on the structure of language and the development of dialects on the basis of sociolinguistic theory. The author treats variation not as a defect of language but as its systemic property, and examines how social stratification, age, gender, education, occupation and the density of social networks affect the selection of linguistic units. Particular attention is given to the social network model, the notions of overt and covert prestige, accommodation theory, and the three waves of variationist research. The article analyses koineisation under conditions of urbanisation, internal migration and dialect contact, as well as the present state of Uzbek dialects: their relation to the literary language, the formation of urban speech, bilingualism and code-switching. It is concluded that the documentation of dialects and the creation of sociolinguistic corpora are urgently required.

Keywords: sociolinguistics, language variation, dialect, social stratification, social network, prestige, accommodation, koineisation, code-switching, Uzbek dialects.

KIRISH

Til hech qachon bir jinsli emas. Bitta til jamoasi ichida ham tovush talaffuzi, soʻz tanlash, grammatik shakllarning qoʻllanishi soʻzlovchidan soʻzlovchiga, hatto bir soʻzlovchining oʻzida vaziyatdan vaziyatga oʻzgarib turadi. Uzoq vaqt tilshunoslik bu oʻzgaruvchanlikni tasodifiy ogʻish sifatida qarab, tadqiqot doirasidan chiqarib tashlagan edi. XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan sotsiolingvistika esa aynan shu oʻzgaruvchanlikni asosiy predmetga aylantirdi va uning ortida qatʼiy qonuniyat borligini koʻrsatdi.

Bu qonuniyatning mohiyati shundaki, til birligini tanlash ehtimoli soʻzlovchining ijtimoiy oʻrni, suhbatdoshi va nutq vaziyati bilan muntazam bogʻlangan boʻladi. Boshqacha aytganda, variativlik tartibga solingan hodisadir. Undan yana bir muhim natija kelib chiqadi: til oʻzgarishi tarixiy oʻtmishda tugagan jarayon emas, balki bugungi kunda, jonli nutqda kuzatish mumkin boʻlgan jarayondir, chunki har bir oʻzgarish oʻz boshlanish bosqichida ijtimoiy jihatdan taqsimlangan variativlik sifatida namoyon boʻladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — ijtimoiy omillarning til shakllanishi va dialektlar rivojiga taʼsir mexanizmlarini nazariy jihatdan tavsiflash va bu mexanizmlarni oʻzbek tilining hozirgi holatiga tatbiq etishdir. Maqolada quyidagi vazifalar hal etiladi: sotsiolingvistik variativlikni belgilovchi asosiy omillarni ajratish va ularning taʼsir yoʻnalishini aniqlash; dialektlar kontakti va koineizatsiya jarayonining shartlarini koʻrsatish; urbanizatsiya, migratsiya, taʼlim va raqamli muloqot sharoitida oʻzbek shevalarining oʻzgarish tendensiyalarini tahlil qilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy sotsiolingvistikaning nazariy asosini variatsion yoʻnalish tashkil etadi. Uning dastlabki tadqiqotlarida shahar aholisi nutqidagi fonetik variantlarning ijtimoiy qatlamlar boʻylab muntazam taqsimlanishi koʻrsatildi: bir xil ijtimoiy holatdagi soʻzlovchilar bir xil variantni bir xil chastotada tanlash tendensiyasiga ega boʻladi, nutq uslubining rasmiyligi ortgan sari esa nufuzli variant ulushi barcha qatlamlarda koʻtariladi [1; 2]. Til oʻzgarishining empirik asoslariga bagʻishlangan nazariy ishda oʻzgarishning beshta muammosi — cheklovlar, oʻtish, joylashuv, baholash va amalga oshish muammolari — taʼriflanib, oʻzgarishni sinxron maʼlumot asosida oʻrganish metodologiyasi asoslandi [3]. Keyinchalik ushbu yoʻnalish ijtimoiy omillarning til oʻzgarishidagi rolini tizimli tavsiflab beruvchi umumlashtiruvchi asarda rivojlantirildi [4].

Ikkinchi yoʻnalish ijtimoiy tuzilmani modellashtirish bilan bogʻliq. Qatlam tushunchasi variativlikning bir qismini tushuntirsa-da, bir xil qatlamdagi soʻzlovchilar oʻrtasidagi farqni izohlay olmaydi. Ijtimoiy tarmoq modeli bu boʻshliqni toʻldirdi: zich va koʻp tomonlama aloqalarga ega jamoada mahalliy til normalari kuchli saqlanadi, aloqalar siyraklashganda esa jamoa tashqi taʼsirga ochiq boʻladi va oʻzgarish tezlashadi [6]. Keyingi ishlarda tarmoq va qatlam modellari bir-birini inkor etmasligi, balki turli darajadagi tushuntirish vositalari ekani koʻrsatildi [7]. Uchinchi yoʻnalish — amaliyot jamoasi tushunchasiga asoslangan yondashuv boʻlib, unda til varianti ijtimoiy guruhning tashqi belgisi emas, balki shaxs oʻz identikligini faol yaratishda foydalanadigan vosita sifatida qaraladi [8; 9].

Toʻrtinchi yoʻnalish nutqiy vaziyat va suhbatdosh omiliga bagʻishlangan. Akkomodatsiya nazariyasiga koʻra soʻzlovchi suhbatdoshiga yaqinlashish yoki

undan uzoqlashish maqsadida o'z nutqini ongli va ongsiz tarzda moslashtiradi; bu moslashuv qisqa muddatli hodisa bo'lsa-da, muntazam takrorlanganda uzoq muddatli til o'zgarishining manbayiga aylanadi [12]. Til va hokimiyat munosabatlarini tahlil qilgan ishlarda esa nufuzli variantning qadr-qimmati uning ichki lingvistik afzalligidan emas, balki uni qo'llaydigan guruhning ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqishi asoslangan [13].

Beshinchi yo'nalish — dialektologiya va dialektlar kontakti nazariyasi. Dialekt chegaralari va izoglossalar tahlili an'anaviy dialektologiyaning asosini tashkil etsa [14], zamonaviy tadqiqotlar diqqatni til hodisalarining makonda tarqalish mexanizmiga qaratadi: yangi variant ko'pincha qo'shni hududlarga emas, avval yirik shaharlarga, so'ngra ulardan kichikroq markazlarga sakrab o'tadi [15]. Dialektlar aralashgan sharoitda esa koineizatsiya, ya'ni turli shevalar elementlaridan yangi, soddalashgan umumiy shakl hosil bo'lishi kuzatiladi; bu jarayonda hal qiluvchi rolni ko'chib kelganlarning bolalari o'ynaydi [16; 17].

Nihoyat, oltinchi yo'nalish ko'p tillilik va globallashuv bilan bog'liq. Diglossiya nazariyasi bir jamoada ikki shaklning vazifaviy taqsimlanishini tavsiflasa [10], til tanlovining vaziyatga bog'liqligini o'rganuvchi domenlar modeli qaysi tilning qayerda va kim bilan qo'llanishini tizimli tahlil qilish imkonini berdi [11]. Kod almashinuvi tadqiqotlari bu hodisaning tasodifiy aralashma emas, balki grammatik cheklolarga bo'ysunuvchi va suhbatda aniq vazifa bajaruvchi murakkab strategiya ekanini ko'rsatdi [18; 19]. Globallashuv sharoitidagi sotsiolingvistika esa til resurslarining harakatchanligi va notekis taqsimlanishini asosiy muammo sifatida qo'yadi [20; 21].

METODOLOGIYA

Maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, tavsifiy va tipologik usullar qo'llanilgan. Ijtimoiy omillarning ta'siri uch mezon bo'yicha ko'rib chiqiladi: omilning til birligini tanlashga ta'sir kuchi, uning ta'siri qamrab oladigan lingvistik sath (fonetika, morfologiya, leksika) va bu ta'sirning uzoq muddatli natijasi, ya'ni u vaqtinchalik variativlik bilan cheklanadimi yoki til tizimining o'zgarishiga olib keladimi.

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA)

Ijtimoiy tabaqalanish va til variativligi. Variatsion tadqiqotlarning eng barqaror natijasi shundan iboratki, nufuzli deb baholanadigan variantning qo'llanish chastotasi ijtimoiy zinapoyaning yuqori pog'onalarida ortadi, quyi pog'onalarida esa kamayadi, biroq bu bog'liqlik hech qachon mutlaq emas — u chastota tafovuti sifatida namoyon bo'ladi [1; 2]. Bundan muhim nazariy xulosa kelib chiqadi: ijtimoiy guruhlar bir-biridan alohida til tizimlari bilan emas, bir xil variantlarni turli nisbatda qo'llashi bilan farqlanadi. Shu sababli sotsiolingvistik tahlil sifat emas, miqdoriy tavsifni talab qiladi.

Ta'lim darajasi va kasbiy faoliyat ushbu tabaqalanishning eng ta'sirchan ko'rsatkichlari hisoblanadi, chunki ular so'zlovchining yozma me'yor bilan aloqasi zichligini belgilaydi. Rasmiy ta'lim tizimida uzoq vaqt bo'lgan va kasbiy faoliyati til bilan bog'liq shaxslar nutqida adabiy me'yor elementlari yuqori chastotada uchraydi. Ayni paytda bu bog'liqlikni bir tomonlama tushunish xato bo'ladi: me'yordan chetlanish bilim yetishmasligining belgisi emas, ko'p hollarda u mahalliy jamoaga mansublikni ifodalovchi ongli tanlovdir.

Yosh omili va o'zgarishning kuzatilishi. Yosh guruhlar o'rtasidagi farq sotsiolingvistikada alohida metodologik ahamiyatga ega, chunki u davom etayotgan o'zgarishni bir vaqtning o'zida kuzatish imkonini beradi: agar yangi

variant yoshlar nutqida yuqori, keksalar nutqida past chastotada uchrasa, bu variant tarqalish bosqichida deb baholanadi [4]. Shu bilan birga, har qanday yoshga bog'liq farq o'zgarish belgisi emas — ba'zi variantlar har bir avlodda yoshlik davrida faol qo'llanib, keyinchalik kamayadi va shu tarzda barqaror takrorlanadi.

Jins omili va nufuzning ikki turi. Ko'plab jamoalarda ayollar nutqida oshkora nufuzga ega, ya'ni jamiyat tomonidan rasman yuqori baholanadigan variantlar ko'proq, erkaklar nutqida esa mahalliy jamoaga sadoqatni ifodalovchi variantlar ko'proq uchraydi [5]. Bu farqni biologik emas, ijtimoiy sabablar bilan izohlash qabul qilingan: u ayollar va erkaklarning ijtimoiy tarmoqlardagi o'rni, mehnat bozoridagi mavqeyi va o'z guruhi bilan bog'liqlik shakllaridagi tafovutdan kelib chiqadi. Aynan shu yerda yashirin nufuz tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi: rasmiy jihatdan past baholanadigan mahalliy variantlar guruh ichida yuqori qadrga ega bo'lishi va shu sababli saqlanib qolishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoq zichligi. Til normasining saqlanishi yoki o'zgarishi ko'p jihatdan jamoa a'zolari o'rtasidagi aloqalar tuzilishiga bog'liq. Zich, ko'p tomonlama va yopiq tarmoqlarda — qishloq jamoalari, an'anaviy mahalla muhiti, bir kasb egalarining tor doiralarida — mahalliy til shakllari kuchli qo'llab-quvvatlanadi va tashqi ta'sirga qarshilik ko'rsatadi [6]. Aloqalar siyraklashganda, masalan shaharga ko'chish yoki kasbiy harakatchanlik natijasida, bu qarshilik zaiflashadi va tashqi variantlar tez o'zlashtiriladi. Shu sababli til o'zgarishining eng faol nuqtalari ko'pincha jamoalar chegarasida, ya'ni turli tarmoqlarni bog'lovchi shaxslar nutqida joylashadi [7].

Vaziyat va suhbatdosh omili. Ijtimoiy omillar so'zlovchining doimiy tavsifi sifatida emas, balki har bir nutqiy vaziyatda qayta amalga oshadigan tanlov sifatida ishlaydi. Bir shaxs oila davrasida, rasmiy uchrashuvda va begona suhbatdosh bilan

muloqotda turli variantlarni qo'llaydi, bu esa uslubiy variativlik deb ataladi. Akkomodatsiya nazariyasi bu jarayonning mexanizmini ko'rsatadi: nutqni suhbatdoshnikiga yaqinlashtirish ijtimoiy yaqinlikni, undan uzoqlashtirish esa masofani ifodalaydi [12]. Uzoq muddatda muntazam akkomodatsiya shaxs nutqining barqaror o'zgarishiga, jamoa miqyosida esa yangi umumiy normaning shakllanishiga olib keladi.

Dialektlar kontakti va koineizatsiya. Ijtimoiy omillarning eng ko'zga ko'rinadigan natijasi dialektlar taqdirida namoyon bo'ladi. Turli shevalar so'zlovchilari birga yashay boshlaganda, odatda uch bosqichli jarayon kuzatiladi. Birinchi bosqichda kattalar nutqida variantlar aralashadi, lekin barqaror tizim shakllanmaydi. Ikkinchi bosqichda tanlanish yuz beradi: keng tarqalgan, ko'pchilikka tushunarli va shakl jihatidan sodda variantlar saqlanadi, tor mahalliy va murakkab shakllar yo'qoladi. Uchinchi bosqichda esa shu muhitda o'sgan bolalar avlodi aralashmadan yagona, izchil yangi normani yaratadi [16; 17]. Natijada paydo bo'lgan koine hech bir dastlabki shevaning aynan davomi bo'lmaydi.

Shu bilan birga, yangi variantlarning makonda tarqalishi bir tekis emas. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, o'zgarish ko'pincha yirik shahar markazidan boshqa yirik markazga sakraydi va faqat keyin atrofdagi kichik aholi punktlariga yoyiladi [15]. Bu qonuniyat aholi zichligi va aloqalar hajmi bilan izohlanadi va shevalarning yo'qolish tartibini oldindan aytish imkonini beradi: shahar atrofidagi va yo'l bo'yidagi hududlar shevasi tez o'zgaradi, chekka va aloqasi kam hududlar shevasi esa uzoqroq saqlanadi.

O'zbek tili shevalari va hozirgi tendensiyalar. O'zbek tili shevalari an'anaviy tasnifda uchta yirik guruhga — qarluq, qipchoq va o'g'uz guruhlariga — ajratiladi

va ular o'rtasidagi farq fonetik hamda morfologik sathda aniq namoyon bo'ladi: singarmonizmning saqlanishi yoki yo'qolishi, unlilar tizimidagi tafovutlar, fe'l shakllari va kelishik qo'shimchalarining variantlari shular jumlasidan. Adabiy me'yorning asosan shahar tipidagi shevalarga tayanishi esa qolgan shevalarni rasmiy muloqot doirasidan tashqarida qoldirdi va ular uchun vazifaviy jihatdan cheklangan maydon belgiladi.

So'nggi o'n yilliklarda bu holatga bir necha kuchli ijtimoiy omil ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchisi — urbanizatsiya va ichki migratsiya: turli viloyatlardan kelgan aholi yirik shaharlarda aralashadi va yuqorida tavsiflangan koineizatsiya sharoiti yuzaga keladi. Ikkinchisi — umumiy ta'lim va ommaviy axborot vositalarining ta'siri, ular adabiy me'yorni kundalik nutqqa muntazam olib kiradi. Uchinchisi — kasbiy harakatchanlik va mehnat migratsiyasi, ular ijtimoiy tarmoqlarning zichligini kamaytiradi va mahalliy normalarni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmni zaiflashtiradi. Ushbu omillar birgalikda shevalarning yo'qolishiga emas, balki ularning vazifaviy qayta taqsimlanishiga olib keladi: sheva belgilari kundalik va norasmiy muloqotda saqlanadi, rasmiy sohalarda esa adabiy me'yor ustunlik qiladi.

Ikki tillilik va kod almashinuvi. O'zbek tili muhitida rus tilining uzoq muddatli mavjudligi barqaror ikki tillilik vaziyatini shakllantirgan, uning izlari bugungi kunda ham leksikada va kod almashinuvi amaliyotida ko'rinadi. Kod almashinuvini nutq madaniyati nuqsoni sifatida baholash sotsiolingvistik jihatdan asossizdir: tadqiqotlar bu hodisaning grammatik jihatdan tartibga solinganini va suhbatda aniq vazifalarni — mavzuni o'zgartirish, iqtibos keltirish, hissiy urg'u berish, suhbatdoshga munosabatni bildirish vazifalarini — bajarishini ko'rsatgan [18; 19]. Shu bilan birga, til tanlovining vaziyatlar bo'ylab taqsimlanishini kuzatish

muhim, chunki ma'lum sohalarda bir tilning tizimli ravishda ustun kelishi uzoq muddatda til vazifalarining torayishiga olib kelishi mumkin [10; 11].

Raqamli muhit va yangi variativlik. So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar til variativligining yangi maydonini yaratdi. Bu maydonning o'ziga xosligi shundaki, unda yozma shakl og'zaki nutq vazifalarini bajaradi: foydalanuvchilar rasmiy imlodan ongli ravishda chetlanib, talaffuzga yaqin yozuvni, sheva shakllarini va aralash kod elementlarini qo'llaydilar. Bunday yozuv savodsizlik belgisi emas, balki uslubiy tanlovdir — u norasmiylikni va guruhga mansublikni ifodalaydi [22]. Sotsiolingvistika uchun bu muhit qimmatli manba hisoblanadi, chunki u ilgari kuzatish qiyin bo'lgan norasmiy nutqning katta hajmdagi yozma izini beradi.

Ayni paytda raqamli muhit variativlikning yangi tengsizligini ham keltirib chiqaradi. Onlayn muhitda ko'proq ifodalangan variantlar va tillar ko'rinadigan, o'rganiladigan va texnologiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bo'lib qoladi, kam ifodalanganlari esa yanada chekkaga suriladi [20]. O'zbek tilining sheva shakllari uchun bu jiddiy xatar: ular og'zaki muloqotda saqlanadi, lekin raqamli izni deyarli qoldirmaydi, natijada kelajakdagi tadqiqotchi uchun ham, texnologiya uchun ham ko'rinmas bo'lib qoladi.

Til siyosati, me'yorlashtirish va shevalarga munosabat. Adabiy me'yorning shakllanishi hech qachon sof lingvistik jarayon emas: me'yor sifatida tanlanadigan shakl odatda ijtimoiy va madaniy markaz mavqeyiga ega hudud nutqiga tayanadi, shu tariqa lingvistik tanlov ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi [13]. Me'yorlashtirishning zaruriy natijasi — qolgan variantlarning nomunosib deb baholanishi. Bu baho til jamoasi ongida mustahkamlanadi va so'zlovchining o'z nutqiga munosabatiga ta'sir qiladi: sheva so'zlovchisi rasmiy vaziyatda o'z nutqini

yashirishga, ba'zan esa ortiqcha to'g'rilashga intiladi. Sotsiolingvistikada bu hodisa ijtimoiy jihatdan quyi guruhlarda nufuzli variantning rasmiy uslubda haddan ziyod ko'p qo'llanishi ko'rinishida ham qayd etilgan [1].

Ayni paytda til siyosatining shevalarga munosabati bir xil bo'lishi shart emas. Bir yondashuv shevani me'yorga to'siq sifatida ko'radi va ta'lim orqali uni siqib chiqarishga intiladi; ikkinchi yondashuv esa shevani madaniy meros va til boyligining manbayi sifatida qaraydi hamda uni hujjatlashtirish, o'rganish va ma'lum sohalarda qo'llab-quvvatlashni maqsad qilib qo'yadi. Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar ikkinchi yondashuv foydasiga dalil beradi: sheva shakllarini bilish adabiy me'yorni egallashga xalaqit bermaydi, aksincha, ikki register o'rtasida ongli tanlov qilish qobiliyati til madaniyatining yuqori darajasi hisoblanadi [8; 21].

Sotsiolingvistik tadqiqotning metodologik shartlari. Yuqorida tavsiflangan qonuniyatlarni aniqlash uchun material yig'ishning o'ziga xos talablari mavjud. Asosiy qiyinchilik kuzatuvchi paradoksi deb ataladi: tadqiqotchi eng qiziqarli material bo'lgan tabiiy, norasmiy nutqni yozib olmoqchi bo'ladi, biroq uning ishtiroki va yozib olish jarayonining o'zi so'zlovchini nutqini rasmiylashtirishga majbur qiladi [2]. Bu paradoksni yengish uchun uzoq muddatli kuzatuv, jamoa ichidagi tanish shaxs vositachiligi, hissiy jihatdan kuchli mavzular haqida suhbat va guruhli suhbat usullari qo'llaniladi.

Ikkinchi metodologik shart — namunaning ijtimoiy tuzilishga muvofiqligi. Tasodifiy tanlangan so'zlovchilar guruhi emas, balki yosh, jins, ta'lim, kasb va yashash joyi bo'yicha muvozanatlashtirilgan namuna miqdoriy tahlil uchun asos bo'la oladi. Uchinchi shart — lingvistik o'zgaruvchini to'g'ri tanlash: u yetarlicha tez-tez uchraydigan, aniq belgilanadigan va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lishi

kerak [21]. O'zbek tili materialida bunday o'zgaruvchilar sifatida unlilar tizimidagi tafovutlar, singarmonizm belgilari, ayrim kelishik va fe'l qo'shimchalarining variantlari hamda o'zlashma leksikaning qo'llanish chastotasi xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Ijtimoiy omillar til tuzilishiga tashqaridan ta'sir qiluvchi holat emas, balki uning ishlash sharti hisoblanadi. Ijtimoiy tabaqalanish, yosh, jins, ta'lim va tarmoq zichligi kabi omillar til birligini tanlash ehtimolini muntazam belgilaydi, bu esa variativlikni tartibga solingan va o'lchanadigan hodisaga aylantiradi. Aynan shu tartiblilik tufayli davom etayotgan til o'zgarishini jonli nutqda kuzatish mumkin.

Dialektlarning taqdiri ana shu omillarning uzoq muddatli natijasidir. Urbanizatsiya, migratsiya, ta'lim tizimi va ommaviy muloqot vositalari ijtimoiy tarmoqlarning zichligini kamaytiradi va mahalliy normalarni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmni zaiflashtiradi, natijada aralash muhitlarda koineizatsiya jarayoni boshlanadi. Shu sababli sheva belgilarining kamayishini alohida so'zlovchilarning tanlovi emas, balki jamoa tuzilishining o'zgarishi natijasi sifatida talqin qilish to'g'riroq bo'ladi.

O'zbek tili uchun bundan amaliy vazifa kelib chiqadi. Shevalarni tizimli hujjatlashtirish, turli yosh va ijtimoiy guruhlar nutqini qamrab olgan sotsiolingvistik korpuslar yaratish, shahar nutqining shakllanish jarayonini miqdoriy usullar bilan o'rganish zarur. Keyingi tadqiqotlarda yirik shaharlarda yuz berayotgan dialekt kontakti jarayonini aniq lingvistik o'zgaruvchilar bo'yicha o'lchash va migratsiya oqimlari bilan bog'liqlikda tahlil qilish alohida ahamiyatga ega.

Nihoyat, sotsiolingvistik ma'lumotlar til siyosati uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Me'yorni belgilash, ta'lim dasturlarini tuzish va til texnologiyalarini rivojlantirishga oid qarorlar real nutq amaliyotining miqdoriy tavsifiga tayanmasa, ular jamoaning haqiqiy til holatidan uzilib qoladi. Shu ma'noda shevalarni o'rganish o'tmishga qaratilgan tavsifiy vazifa emas, balki bugungi til hayotini boshqarish uchun zarur bo'lgan amaliy bilim manbayidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Labov W. The Social Stratification of English in New York City. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 485 p.
2. Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 344 p.
3. Weinreich U., Labov W., Herzog M. Empirical foundations for a theory of language change // Directions for Historical Linguistics. – Austin: University of Texas Press, 1968. – P. 95–195.
4. Labov W. Principles of Linguistic Change. Vol. 2: Social Factors. – Oxford: Blackwell, 2001. – 592 p.
5. Trudgill P. The Social Differentiation of English in Norwich. – Cambridge: Cambridge University Press, 1974. – 211 p.
6. Milroy L. Language and Social Networks. 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 1987. – 232 p.
7. Milroy L., Milroy J. Social network and social class: Toward an integrated sociolinguistic model // Language in Society. – 1992. – Vol. 21, No. 1. – P. 1–26.

8. Eckert P. Three waves of variation study: The emergence of meaning in the study of sociolinguistic variation // Annual Review of Anthropology. – 2012. – Vol. 41. – P. 87–100.
9. Eckert P. Linguistic Variation as Social Practice: The Linguistic Construction of Identity in Belten High. – Oxford: Blackwell, 2000. – 240 p.
10. Ferguson C. A. Diglossia // Word. – 1959. – Vol. 15, No. 2. – P. 325–340.
11. Fishman J. A. Who speaks what language to whom and when? // La Linguistique. – 1965. – Vol. 1, No. 2. – P. 67–88.
12. Giles H., Coupland N., Coupland J. Accommodation theory: Communication, context, and consequence // Contexts of Accommodation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – P. 1–68.
13. Bourdieu P. Language and Symbolic Power. – Cambridge: Polity Press, 1991. – 302 p.
14. Chambers J. K., Trudgill P. Dialectology. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 201 p.
15. Britain D. Space and spatial diffusion // The Handbook of Language Variation and Change. – Oxford: Blackwell, 2002. – P. 603–637.
16. Kerswill P., Williams A. Creating a new town koine: Children and language change in Milton Keynes // Language in Society. – 2000. – Vol. 29, No. 1. – P. 65–115.
17. Trudgill P. Dialects in Contact. – Oxford: Blackwell, 1986. – 174 p.
18. Auer P. (ed.) Code-Switching in Conversation: Language, Interaction and Identity. – London: Routledge, 1998. – 355 p.

19. Myers-Scotton C. Duelling Languages: Grammatical Structure in Codeswitching. – Oxford: Clarendon Press, 1993. – 285 p.
20. Blommaert J. The Sociolinguistics of Globalization. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 230 p.
21. Tagliamonte S. A. Variationist Sociolinguistics: Change, Observation, Interpretation. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2012. – 424 p.
22. Androutsopoulos J. Language change and digital media: A review of conceptions and evidence // Standard Languages and Language Standards in a Changing Europe. – Oslo: Novus, 2011. – P. 145–161.